XX ASR BOSHLARI MA’RIFATPARVARI ABDURAHMON SAYYOH TOSHKANDIYNING “TANVIR AL-AHDOQ FI-MAKORIM UL-AXLOQ” (GO‘ZAL AXLOQLAR BORASIDA KO‘Z GAVHARINI NURLANTIRISH) ASARIDA ILGARI SURILGAN AXLOQIY FIKRLAR TASNIFI

Pulotov Asliddin Homidovich
Akademik Bobojon G‘ofurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori. (Tojikiston)

Annotatsiya: Bugungi kunda Sharq falsafiy tafakkuri, uning ochilmagan noyob ma’naviy me’rosini tadqiq etish, ajdodlarimiz qoldirgan qimmatli asarlarni o‘rganish har jihatdan dolzarbdir. Shu tufayli ham Sharqning xususan o‘rta osiyoning mashhur shaxslaridan biri Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning “Tanvir al-ahdoq fi-makorim al-axloq” asari va undagi yoritilgan falsafiy va axloqiy mulohazalarni tadqiq etish, manba sifatida asarni tahliliy o‘rganish hamda uning Sharq falsafasidagi o‘rnini ochib berishdan iborat. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning “Tanvir al-ahdoq fi-makorim al-axloq” asari va undagi ilgari surilgan g‘oyalar nihoyatda e’tiborlidir.

Tayanch (eng muhim) so‘zlar: XX asr boshlari, manifest, Turkiston milliy matbuoti, “Tanvir al-ahdoq fi-makorim al-axloq”, “al-Isloh”, axloq ilmi, ota va ona, muallimlar, ulug‘lar, podshohlar, do‘stlar.

Sharq falsafasi tarkibida islom falsafasi muhim o‘rin egallaydi. Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma’naviyat, adolatparvarlik, ma’rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islom dini ta’minoti bilan uzviy ravishda rivojlandi va o‘z navbatida bu falsafiy – axloqiy ta’limotlar ham xalqimiz ma’naviyatidan bahra olib boyib bordi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma asarlar bizning beqiyos ma’naviy boyligimiz, iftixorimizdir... Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy-axloqiy, ilmiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish davri keldi”[3;32].

Abdurahmon Muhammad Sodiq o‘g‘li Toshkandiy ham XX asr boshlari matbuotida “Sayyoh” taxallusi bilan tanilgan ma’rifatparvar ziyolilardan biri bo‘lib, u XIX asr oxiri XX asr boshlarida noshirlik qilish bilan birga odob axloq, diniy va ma’rifiy sohalarga oid qator kitoblar yozgan. Jumladan, birgina “Me’yor ul-axloq” asarining oxirgi qismida Abdurahmon Sayyohning muallifligida nashrga tayyorlangan “Makkai mukarrama tarixi”, “Bayt ul-muqaddas tarixi”,

"Arabning qadimiy tarixi", "Bani Isroil tarixi" kabi o'nga yaqin asarlar nomlari keltirilgan. Bundan tashqari u siyosat, islom, tarix, ma'naviyat sohalarida chop etilgan ko'plab kitoblarga noshirlik qilgan. Shuningdek, uning o'zi ham necha kitoblar yozgani ma'lum. Abdurahmon Sayyohning o'lka aholisi kitob savodxonligini oshirish, mahalliy va dunyoviy yangiliklardan, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlardan xabardor qilishga qaratilgan faoliyati uning bosh muharrirligida 1915-1917 yillarda Toshkentda nashr qilingan "al-Isloh" jurnali faoliyatida ham ko'rish mumkin. Mazkur jurnal nafaqat Turkiston o'lkasida balki, qo'shni musulmon mamlakatlarida ham mashhur bo'lgan. Jurnalda islom, shariat va fiqhiy masalalar, odob-axloq muammolari, mashhur diniy asarlardan tarjimalar, o'lka hayotiga oid bahs-munozalarlar berib borilgan[4;347].

Abdurahmon Sayyoh qalamiga mansub asarlardan ikkitasi "Me'yor ul-axloq" hamda "Tanvir ul-ahdoq fi-t makorim ul-axloq" asarlari o'rta asrlarda yashab o'tgan islom olamining yirik allomalari ilgari surgan g'oyalar asosida yozilgan bo'lib, odob-axloqqa oiddir. Mazkur asarlarda muallif axloqning mohiyati xususida fikr yuritar ekan avvalo Qur'oni karim, hadisi sharif hamda imom G'azzoliy, Faxriddin Roziy kabi allomalar asarlariga ishora qiladi. Asarlarda muallif tomonidan an'anaviy musulmon odob-axloq masalalariga yangicha yondashuvlarning bildirilishi alohida ahamiyatga ega.

"Me'yor ul-axloq" asariga yaqin aniqrog'i, ayrim o'zgartirishlar bilan o'zbek tilida nashr etilgan "Tanvir ul-ahdoq fi-makorim ul-axloq" (Go'zal axloqlar borasida ko'z gavharini nurlantirish) nomli asarining 1913 yil Toshkentda G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida toshbosma uslubida chop etilgan[1].

Umuman olganda, "Tanvir ul-ahdoq fi-makorim ul-axloq" asari nashrida Turkiston o'lkasidagi ta'lim muassasalarida musulmon bolalar ta'lim-tarbiyasida odob-axloq mavzusini sodda va tushunarli qilib yoritish maqsad qilib olinganligini ko'rish mumkin. Zero, o'sha davr nuqtai nazaridan mahalliy hamda keng yo'l ochilgan rus-tuzem maktablarida o'rta asrlarda yaratilgan odob-axloq haqidagi an'anaviy kitoblar o'quv dasturlaridan chetga chiqarilgan bir paytda, ularda ilgari surilgan g'oyalar hamda islomiy an'analar doirasida, mahalliy ma'rifatparvarlar tomonidan davr talablaridan kelib chiqqan holda qayta ishlangan odob-axloq darsliklariga ehtiyoj katta edi.

"Tanvir ul-ahdoq fi-t makorim ul-axloq" asaridan tarjima qilingan ushbu fikrlar ahamiyati hamon qadrlidir. *Maishiy hayot zaruriyatlari:* Odamlarning ishlari u siz anjom topmaydir, bu to'rt narsadur:

Birinchi - dehqonchilik – taom ishi uning bilan durust bo'lgay.

Ikkinchi - to'quvchilik – kiyim, libos ishi uing bilan durust bo'lgay.

Uchinchi – binokorlik, toki maskan va imoratlar bino qilmoq uning bilan durust bo'lgay.

To'rtinchi - siyosat qilguvchi, toki kishilarning ishlari uning bilan intizom topgay. Chunki, bir kishi o'zining barcha ishlarini ham o'z qo'li bilan anjom bera olmaydi.

Uy tadbirlari xususida: Uyning tadbirida insonlar ushbu to'rt narsaga muhtoj bo'ladilar. Birinchisi – mol, ikkinchisi- xizmatkor, uchinchisi – xotin, to'rtinchisi – farzand. Mol-mulkka hojat shu sababdanki, Xudoyi taolo insonni taomga muhtoj qilib yaratgan. Va aning yemishi tabiiy emasdur.

Uyning intizomi xususida: Uyning intizomi uchun bir necha maslahatlarning mavjud bo'lmog'i lozimdir. Bular – aql, dilning va jismning quvvatliligi, uning shahvatga g'olib bo'lmog'i va shahvatning unga g'olib bo'lmasligi, tavfiq va hidoyatning oshnoligi kabidirki, to har ishda adl va e'tidolni qo'ldan bermaslik uchun.

Farzandning ahvoli xususida: Farzandning tarbiyasi uning ota va onasi tabiati, nafsoniy hatti – harakatlari muhitida kamol topadi. Shu sababli ham nasabning e'tibori aqlan va shar'an juda muhimdir. Va yana farzandni aql va shariatga muvofiq adablantirmoq lozim. Fazilat ahllarining majlislaridan mahrum qilmagaylar. Ortiqcha hazil va mutoyibadan man' qilgaylar. Mumkin qadar yoshligidan maqbul amallar va yaxshi siyratlarga odatlantirmoq lozim. Chunki, agar yoshlik vaqtida tarbiya yomon bo'lsa, keyin o'sha nomunosib amallardan qaytarish qiyin bo'lgay.

Avlod tarbiyasi xususida: Farzand tarbiyasida ota-onaga bu to'rt narsa zarurdir. Bular – taaddubi jismoniy, taaddubi nafsoniy, husni tabsiyat, husni tarbiyat. Taaddubi jismoniy shudirki, farzandning harakati va badanini sihat qoidalariga muvofiq qilmoq, hamda ko'p yemoq va ichmoq,

bema'ni kiyinmoqdan, qasam ichmoq, so'kmoq, yolg'on gapirmoqdan man qilmoq, yomon hamsuhbatlardan saqlamoqdir.

Taaddubi nafsoniy shudirki, ya'ni ilm va odob o'rgatmoq, shariatning ahkomlari bilan tanishtirmoq, o'tmishni tarix mutoalasi ila birdirmoqdir. Yana Kalomulloh, husnixat, lug'at, sarf-nahv, handasa, hisob, jug'rofiya, ilmi fiqh ya'ni, halol va haromni, ilmi hadisni o'rgatmoqlikdir. Ana o'shanda farzand zararli narsalarni o'zidan uzoq tutib, manfaatli narsalarni yaqin tutmoqqa qodir bo'ladi.

Husni tasbiyat ya'ni, farzandga yaxshi so'zlarni o'rgatib, yomon so'zlarni so'zlashga man qilmoqdir. Husni tarbiyatlardan yana biri farzandga yaxshi mazhabni ixtiyor qildirmoq, yaxshi odatlarga o'rgatmoqdir.

Ahli nav' birla tadbir tuzmak xususida: Ma'lum bo'lsinkim ahli nav'ga ota va ona, muallim, xoja va podshoh kiradi.

Ahli nav' birla barobarlar ila tadbir tuzmak xususida: Bular quyidagilar:

Haqiqiy birodarlar – bu tug'ishgan birodarlardan har birlarining o'z sha'nlarida ya'ni martabalarida loyiq va munosib hurmat va ikromlarini bajo kelturgaylar. Har birlari bilan so'zlashganda aql, ilm, fazlu kamollariga munosib darajasida so'zlashgaylar.

Umuman olganda O'zbekistonda demokratik islohotlarni amalga oshirish jarayonida har tomonlama sog'lom, barkamol avlodning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni axloq-odobli qilib tarbiyalash, kasb-hunarga bo'lgan salohiyatlarini ro'yobga chiqarish, badiiy-estetik madaniyatini yuksaltirish, millat, mamlakat siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayoti bilan bog'liq dunyoqarashini shakllantirish bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy masala bo'lib kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmon Muhammad Sodiq o'g'li Toshkandiy. Tanvir al-ahdoq fi-makorim al-axloq. – Toshkent: G'ulom Hasan Orifjonov matbaasi, 1913. 76 b. (Abdurakhmon Muhammad Sodiq Tashkandi. "Tanvir al-akhdok fi-makorim al-akhlok". - Tashkent: Gulom Hasan Arifjonov's Publisher, 1913. 76 p.)

2. Karimov I. A. Adolatli jamiyat sari.-T.: O'zbekiston, 1998. – 158 b. (Karimov I.A.Towards rightful society. T.1. -T .: Uzbekistan, 1998. 158 p.)

3. O'zbekistonning yangi tarixi. I jild. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2011. 552 b. (The modern history of Uzbekistan. Volume I During the colonization of Turkestan Tsarist Russia. - T.: East, 2011. 552 p.)